



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING**  
**BUYRUG‘I**

2023 - yil « 29 » may 232 -son

**Toshkent shahri**

**O‘quv-uslubiy hujjatlarni tasdiqlash, kelishuvga kiritish hamda o‘quv adabiyotlarni nashr etishga ruxsat berish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarini o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi 816-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 7-martdagi “Oliy ta’lim tizimida zamonaviy o‘quv adabiyotlarni yaratish va nashr etish tizimini takomillashtirish bo‘yicha 2023 – 2024-yillarga mo‘ljallangan Dastur”ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda Vazirlik huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash Rayosatining 2023-yil 17-maydagi 2-sonli majlisi qaroriga muvofiq

**BUYURAMAN:**

1. [adabiyot.edu.uz](http://adabiyot.edu.uz) elektron platformasiga biriktirilgan ekspertlar tomonidan ijobiy xulosa berilgan oliy ta’lim muassasalari uchun yaratilgan o‘quv adabiyotlari 1-ilovadagi ro‘yxatga muvofiq nashr etishga ruxsat berilsin.

2. Oliy ta’lim muassasalari tomonidan 2022/2023-o‘quv yili uchun ishlab chiqilgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining malaka talablari 2-ilovadagi ro‘yxatga muvofiq kelishilganligi inobatga olinsin.

3. Oliy ta’lim muassasalari tomonidan 2022/2023-o‘quv yili uchun qo‘shma ta’lim dasturlari doirasida ishlab chiqilgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari 3-ilovadagi ro‘yxatga muvofiq kelishilganligi inobatga olinsin.

4. Oliy ta’lim sohasida professor-o‘qituvchilar va talabalarning salohiyatini oshirish maqsadida ilg‘or tajribalar va xalqaro tendensiyalar asosida tayyorlangan o‘quv-metodik qo‘llanmalar 4-ilovadagi ro‘yxatga muvofiq nashr etishga tavsiya etilsin.

5. Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi (Sh. Yakubov):

kelishuvga kiritilgan malaka talablarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish, tegishli ta'lim muassasalariga yetkazish;

nashr etishga ruxsat berilgan o'quv adabiyotlarining nashr ruxsatnomalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish vazifalari yuklatilsin.

6. Oliy ta'lim muassasalari rektorlari (direktorlar) nashr etishga ruxsat berilgan o'quv adabiyotlarini belgilangan tartibda chop etilishini hamda axborot-resurs markaziga joylashtirilishini ta'minlasin.

7. Ushbu buyruq ijrosining nazorati vazirning birinchi o'rinbosari K. Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



I. Abduraxmonov



## “TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirining birinchi o‘rinbosari,  
Muvofiqlashtiruvchi kengash  
Rayosati rahbari



**K.Karimov**

“ 14 ” 15 2023-yil

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha  
o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash  
Rayosati majlisining  
2-son BAYONI**

**Toshkent shahri**

**2023-yil “ 14 ”-may**

**Raislik qiluvchi:** K.Karimov – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o‘rinbosari, Muvofiqlashtiruvchi kengash Rayosati rahbari.

**Qatnashdilar:** Muvofiqlashtiruvchi kengash rayosati a‘zolari.

### **KUN TARTIBI**

1. [adabiyot.edu.uz](http://adabiyot.edu.uz) elektron platformasiga biriktirilgan ekspertlar tomonidan ijobiy xulosa berilgan oliy ta’lim muassasalari uchun yaratilgan o‘quv adabiyotlarini nashr etishga tavsiya berish to‘g‘risida.

Ma‘ruzachi: M.Esanov – Vazirlik huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazi direktorining birinchi o‘rinbosari.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti tomonidan 2022/2023 o‘quv yili uchun ishlab chiqilgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining malaka talablarini kelishuvga taqdim etish to‘g‘risida.

Mas‘ul: M.Esanov – Vazirlik huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazi direktorining birinchi o‘rinbosari.

Ma‘ruzachi: O.Mirjalolov – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutining o‘quv va ilmiy ishlar bo‘yicha birinchi o‘rinbosari.

3. Qarshi davlat universiteti tomonidan 2022/2023-o‘quv yili qo‘shma ta’lim dasturlari uchun ishlab chiqilgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari malaka talablarini kelishuvga taqdim etish to‘g‘risida.

Mas‘ul: M.Esanov – Vazirlik huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazi

direktorining birinchi o‘rinbosari.

Ma‘ruzachi: A.Xolmurodov – Qarshi davlat universitetining o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori.

4. Qo‘qon davlat pedagogika instituti tomonidan 2022/2023-o‘quv yili qo‘shma ta‘lim dasturlari uchun ishlab chiqilgan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari malaka talablarini kelishuvga taqdim etish to‘g‘risida.

Mas‘ul: M.Esanov – Vazirlik huzuridagi Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazi direktorining birinchi o‘rinbosari.

Ma‘ruzachi: N.Babayeva – Qarshi davlat universitetining o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori.

5. Toshkent davlat transport universiteti tomonidan 2022/2023-o‘quv yili qo‘shma ta‘lim dasturlari uchun ishlab chiqilgan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari malaka talablarini kelishuvga taqdim etish to‘g‘risida.

Mas‘ul: M.Esanov – Vazirlik huzuridagi Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazi direktorining birinchi o‘rinbosari.

Ma‘ruzachi: A.G‘ulomov – Toshkent davlat transport universitetining o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori.

6. Toshkent kimyo texnologiya instituti tomonidan 2022/2023-o‘quv yili uchun 60720600 – Materialshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi (organik moddalar, kimyo va neft-gaz sanoati) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ishlab chiqilgan malaka talabini kelishuvga taqdim etish to‘g‘risida.

Mas‘ul: M.Esanov – Vazirlik huzuridagi Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazi direktorining birinchi o‘rinbosari.

Ma‘ruzachi: T.Safarov – Toshkent kimyo texnologiya institutining o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori.

7. Turli masalalar.

Raislik qiluvchi K.Karimov kun tartibidagi masalani ovozga qo‘ydi. Kun tartibi Muvofiqlashtiruvchi kengashning rayosati a‘zolari tomonidan bir ovozdan ma‘qullandi.

Kun tartibidagi **birinchi masala** yuzasidan Vazirlik huzuridagi Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazining birinchi o‘rinbosari M.Esanov so‘zga chiqib, Muvofiqlashtiruvchi kengashning bugungi yig‘ilish muhokamasiga o‘quv adabiyotlarini ekspertizadan o‘tkazish va nashr guvohnomasini rasmiylashtirish bo‘yicha [adabiyot.edu.uz](http://adabiyot.edu.uz) elektron platformasiga kelib tushgan o‘quv adabiyotlar to‘g‘risida ma‘lumot berdi.

Jumladan joriy yilning 25-aprel holatiga ko‘ra, elektron platforma orqali 1 720 nomdagi o‘quv adabiyotlari, jumladan 998 nomda o‘quv qo‘llanma, 722 nomda darslik ekspertiza uchun taqdim etilgan. 174 nomdagi o‘quv adabiyotlari dastlabki texnik ekspertiza xulosasiga ko‘ra rad etilgan. Buning asosiy sababi:

o'quv adabiyoti qo'lyozmasida OTM nomi, muallif(lar) F.I.Sh ko'rsatilganligi (73 ta holatda);

antiplagiat tekshiruvidan o'tkazilganlik to'g'risidagi hisobotni to'liq holda taqdim etmaganligi (65 ta holatda);

antiplagiatga tekshirilganligi to'g'risidagi soxta hisobotlarni kiritganligi (36 ta holatda) holatlari aniqlandi.

Shuningdek, platformada ro'yxatdan o'tgan mualliflarning shaxsiy kabinetlaridagi 395 ta ariza "Tugallanmagan" holatda turganligi, mualliflar tomonidan mazkur arizalarni yakuniga yetkazish va ekspertiza uchun taqdim etish lozimligi to'g'risida oliy ta'lim muassasalari mas'ul xodimlariga tushuntirish berdi.

Shu bilan bir qatorda, Muvofiqlashtiruvchi kengashning bugungi yig'ilish muhokamasiga [adabiyot.edu.uz](http://adabiyot.edu.uz) elektron platformasiga biriktirilgan ekspertlar tomonidan ijobiy xulosa berilgan o'quv adabiyotlari kiritilganligi to'g'risida axborot berdi.

Mazkur masala atroflicha muhokama qilinib, Muvofiqlashtiruvchi kengash rayosati a'zolari tomonidan ma'qullandi hamda ijobiy xulosa berilgan oliy ta'lim muassasalari uchun yaratilgan o'quv adabiyotlari nashr etishga tavsiya etildi.

Kun tartibidagi **ikkinchi masala** yuzasidan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti o'quv va ilmiy ishlari bo'yicha birinchi o'rinbosari O.Mirjalolov so'zga chiqib, Institut tomonidan 2022/2023-o'quv yili uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqilgan malaka talablari Vazirlik huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazida o'rnatilgan tartibda ekspertizadan o'tkazilib, ma'qullanganligi to'g'risida ma'lumot berdi hamda ularni kelishuvdan o'tkazib berish taklifini berdi.

Mazkur masala atroflicha muhokama qilinib, Muvofiqlashtiruvchi kengash rayosati a'zolari tomonidan ma'qullandi hamda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti tomonidan 2022/2023-o'quv yili uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqilgan malaka talablari kelishuvga kiritish uchun tavsiya etildi.

Kun tartibidagi **uchinchi masala** yuzasidan Qarshi davlat universitetining o'quv ishlari bo'yicha prorektori A.Xolmurodov so'zga chiqib, Universitet tomonidan 2022/2023-o'quv yili qo'shma ta'lim dasturlari uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ishlab chiqilgan malaka talablari Vazirlik huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazida ekspertizadan o'tkazilib, ma'qullanganligi to'g'risida ma'lumot berdi hamda ularni kelishuvdan o'tkazib berish taklifini berdi.

Mazkur masala atroflicha muhokama qilinib, Muvofiqlashtiruvchi kengash a'zolari tomonidan ma'qullandi hamda Qarshi davlat universiteti tomonidan 2022/2023-o'quv yili uchun qo'shma ta'lim dasturlari doirasida ishlab chiqilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari kelishuvga kiritish uchun tavsiya etildi.

Kun tartibidagi **to'rtinchi masala** yuzasidan Qo'qon davlat pedagogika institutining o'quv ishlari bo'yicha prorektori N.Babayeva so'zga chiqib, Institut

tomonidan 2022/2023-o'quv yili uchun qo'shma ta'lim dasturlari doirasida ishlab chiqilgan bakalavr ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari malaka talablari Vazirlik huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazida o'rnatilgan tartibda ekspertizadan o'tkazilib, ma'qullanganligi to'g'risida ma'lumot berdi hamda ularni kelishuvdan o'tkazib berish taklifini berdi.

Mazkur masala atroflicha muhokama qilinib, Muvofiqlashtiruvchi kengash rayosati a'zolari tomonidan ma'qullandi hamda Qo'qon davlat pedagogika instituti tomonidan 2022/2023-o'quv yili uchun qo'shma ta'lim dasturlari doirasida ishlab chiqilgan bakalavr ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari kelishuvga kiritish uchun tavsiya etildi.

Kun tartibidagi **beshinchi masala** yuzasidan Toshkent davlat transport universiteti o'quv ishlari bo'yicha prorektori A.G'ulomov so'zga chiqib, Universitet tomonidan 2022/2023-o'quv yili uchun qo'shma ta'lim dasturlari doirasida ishlab chiqilgan bakalavr ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablarini Vazirlik huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazida o'rnatilgan tartibda ekspertizadan o'tkazilib, ma'qullanganligi to'g'risida ma'lumot berdi hamda ularni kelishuvdan o'tkazib berish taklifini berdi.

Mazkur masala atroflicha muhokama qilinib, Muvofiqlashtiruvchi kengash rayosati a'zolari tomonidan ma'qullandi hamda Toshkent davlat transport universiteti tomonidan 2022/2023-o'quv yili uchun qo'shma ta'lim dasturlari doirasida ishlab chiqilgan bakalavr ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari kelishuvga kiritish uchun tavsiya etildi.

Kun tartibidagi **oltinchi masala** yuzasidan Toshkent kimyo-texnologiya instituti o'quv ishlari bo'yicha prorektori T.Safarov so'zga chiqib, Institut tomonidan 2022/2023-o'quv yili uchun ishlab chiqilgan 60720600-Materialshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi (organik moddalar, kimyo va neft-gaz sanoati) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talabi Vazirlik huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazida o'rnatilgan tartibda ekspertizadan o'tkazilib, ma'qullanganligi to'g'risida axborot berdi hamda ularni kelishuvdan o'tkazib berish taklifini berdi.

Mazkur masala atroflicha muhokama qilinib, Muvofiqlashtiruvchi kengash rayosati a'zolari tomonidan ma'qullandi hamda Toshkent kimyo-texnologiya instituti tomonidan 2022/2023-o'quv yili uchun ishlab chiqilgan 60720600-Materialshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi (organik moddalar, kimyo va neft-gaz sanoati) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talabi kelishuvga kiritish tavsiya etildi.

Kun tartibidagi **turli masalalar** bo'yicha:

1. Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi boshqarma boshlig'i A.Eshmurodov so'zga chiqib, Markaz tomonidan faoliyat yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim sohasida professor-o'qituvchilar va talabalarning intellektual salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladigan, soha bo'yicha ilg'or tajribalar, jahon ilm-fani va tendensiyalarini

inobatga olgan holda **21** nomdagi o'quv-metodik qo'llanmalar tayyorlanganligi to'g'risida axborot berdi.

Mazkur qo'llanmalar sodda, aniq yo'naltirilgan, tushunarli, sifatli hamda zamonaviy ko'rinishda tayyorlanganligi hamda ularga oliy ta'lim muassasalarining yetuk professor-o'qituvchilaridan taqrizlar olinganligini ta'kidlab o'tdi.

Qo'llanmalar oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, ta'lim jarayonini o'quv-metodik ta'minlash hamda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilishini inobatga olgan holda ularni belgilangan tartibda nashr etish va barcha respublika oliy ta'lim muassasalariga tarqatish taklifini berdi.

Mazkur masala atroflicha muhokama qilinib, Muvofiqlashtiruvchi kengash rayosati a'zolari tomonidan ma'qullandi hamda oliy ta'lim sohasida professor-o'qituvchilar va talabalarning salohiyatini oshirish maqsadida ilg'or tajribalar va xalqaro tendensiyalar asosida tayyorlangan o'quv-metodik qo'llanmalar nashr etishga tavsiya etildi.

### **Kun tartibidagi muhokama qilingan masalalar yuzasidan Muvofiqlashtiruvchi kengash Rayosati qaror qiladi:**

1. [adabiyot.edu.uz](http://adabiyot.edu.uz) elektron platformasiga biriktirilgan ekspertlar tomonidan ijobiy xulosa berilgan oliy ta'lim muassasalari uchun yaratilgan o'quv adabiyotlari nashr etishga tavsiya etilsin.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti tomonidan 2022/2023-o'quv yili uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqilgan malaka talablari kelishuvga kiritish uchun tavsiya etilsin.

3. Qarshi davlat universiteti tomonidan 2022/2023-o'quv yili uchun qo'shma ta'lim dasturlari doirasida ishlab chiqilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari kelishuvga kiritish uchun tavsiya etilsin.

4. Qo'qon davlat pedagogika instituti tomonidan 2022/2023-o'quv yili uchun qo'shma ta'lim dasturlari doirasida ishlab chiqilgan bakalavr ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari kelishuvga kiritish uchun tavsiya etilsin.

5. Toshkent davlat transport universiteti tomonidan 2022/2023-o'quv yili uchun qo'shma ta'lim dasturlari doirasida ishlab chiqilgan bakalavr ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari kelishuvga kiritish uchun tavsiya etilsin.

6. Toshkent kimyo-texnologiya instituti tomonidan 2022/2023-o'quv yili uchun ishlab chiqilgan 60720600-Materialshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi (organik moddalar, kimyo va neft-gaz sanoati) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talabi kelishuvga kiritish tavsiya etilsin.

7. Oliy ta'lim sohasida professor-o'qituvchilar va talabalarning salohiyatini oshirish maqsadida ilg'or tajribalar va xalqaro tendensiyalar asosida tayyorlangan o'quv-metodik qo'llanmalar nashr etishga tavsiya etilsin.

**Muvofiqlashtiruvchi kengash  
mas'ul kotibi**



**M.Esanov**